

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING OG‘ZAKI NUTQ RIVOJIGA
TA’SIRI**

Alimardanova Sitora Ikrom qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrası o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15253613>

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining og‘zaki nutqni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Interaktiv vositalar, multimedia materiallari, shuningdek, texnologiyalarning ijobiy va salbiy ta’siri, ularni to‘g‘ri qo‘llash usullari haqida fikr yuritiladi. Maqola ta’limda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish orqali og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirishni takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Og‘zaki nutq, axborot texnologiyalari, ta’lim, multimedia vositalari, interaktiv metodlar, nutq madaniyati, raqamli texnologiyalar, zamonaviy dars.

Аннотация: В статье рассматривается роль и значение информационных технологий в развитии устной речи. Обсуждаются положительные и отрицательные эффекты интерактивных инструментов, мультимедийных материалов, а также технологий и методы их правильного использования. В статье рассматриваются вопросы совершенствования развития устной речи посредством использования современных подходов в образовании.

Ключевые слова: Устная речь, информационные технологии, образование, мультимедийные средства, интерактивные методы, культура речи, цифровые технологии, современный урок.

Abstract: This article discusses the role and importance of information technologies in the development of oral speech. Interactive tools, multimedia materials, as well as the positive and negative effects of technologies, methods of their correct application are considered. The article is aimed at improving the formation of oral speech skills through the use of modern approaches in education.

Keywords: Oral speech, information technologies, education, multimedia tools, interactive methods, speech culture, digital technologies, modern lesson.

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish davrida axborot texnologiyalari jamiyatning barcha jabhalarida, xususan ta’lim tizimida keng qo‘llanilmoqda. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat bilim olish jarayonini qulaylashtiradi, balki o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini, xususan og‘zaki nutqini rivojlantirishda ham katta imkoniyatlar yaratadi. Og‘zaki nutq



shaxsning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli ishtirok etishi, fikrini erkin va aniq ifoda etishi, boshqalar bilan samarali muloqot oʻrnatishida muhim omil hisoblanadi. Axborot texnologiyalari orqali taʼlim jarayoni interaktiv va shaxsga yoʻnaltirilgan shaklga ega boʻladi. Oʻquvchilarning mustaqil izlanish olib borishiga, maʼlumotlarni tezkor izlash va tahlil qilishiga, hamkorlikda ishlash va fikr almashish koʻnikmalarini shakllantirishga imkon yaratiladi. Shuningdek, AT vositalari orqali dars mazmuni vizual, audio va interaktiv shaklda yetkazilad, turli uslubdagi topshiriqlarni tezkor va individual tarzda berish mumkin boʻladi. Bu esa oʻz navbatida, taʼlim sifati oshashiva oʻquvchilarning qiziqishi ortishiga zamin boʻladi. Taʼlimdagi bu texnologik yondashuvlar nafaqat bilim olish, balki ogʻzaki nutqni rivojlantirishda ham samarali platforma sifatida xizmat qilmoqda.

Tahlil va natija. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, axborot texnologiyalari vositasida ogʻzaki nutqni shakllantirish boʻyicha olib borilayotgan ishlar ijobiy samara bermoqda. Jumladan, oʻquvchilarning eshitish orqali idrok etish, fikrni ogʻzaki ifodalash, savol-javob shaklida muloqot qilish, mustaqil soʻzlashuv faoliyatiga jalb etish kabi kompetensiyalari sezilarli darajada rivojlanmoqda. Darslarda videomateriallar, interaktiv suhbatlar, onlayn platformalar orqali nutqiy faollik oshgani kuzatilmoqda. Bu borada bir qator pedagog ustozlarimiz izlanish olib borishgan. T. Yoʻldoshev, N. Mahmudov, M. Qodirova G. Mavlonova va Z. Ismoilovalar maktabgacha va boshlangʻich taʼlimda ogʻzaki nutqni rivojlantirish usullarini oʻrgangan.

Biroq tahlillar shuni ham koʻrsatadiki, texnologiyalarni haddan tashqari koʻp yoki nazoratsiz qoʻllash baʼzida ogʻzaki muloqotga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Jumladan, jonli muloqot kamayadi, oʻz fikrini grammatik jihatdan toʻgʻri ifodalashga eʼtibor susayadi, va til madaniyatida soddalashuv holatlari koʻzga tashlanadi. Shu bois, AT vositalarini maqsadli, muvozanatli va metodik asoslangan tarzda qoʻllash muhim hisoblanadi.

Natijalar quyidagilardan iborat:

- Axborot texnologiyalari ogʻzaki nutqni rivojlantirishda samarali vosita boʻlib xizmat qilmoqda.

- Oʻquvchilarning soʻz boyligi, talaffuzi va fikrni ifodalash salohiyati multimedia vositalari orqali rivojlanmoqda.

- Nutqiy mashgʻulotlarni Axborot texnologiyalari orqali tashkil etish oʻquvchilarning muloqotga boʻlgan qiziqishini oshirmoqda.

- AT vositalarini nazorat ostida, taʼlimiy va tarbiyaviy maqsadlar asosida qoʻllash eng maqbul yoʻldir.



O'quvchilar uchun og'zaki nutqni o'stirishning quyidagi usuullari ham mavjud: Kitob o'qish va hikoya qilib berish, yangi so'zlar o'rganish, savol-javob o'yinlari o'ynash, "Nima uchun?", "Qanday?", "Agar shunday bo'lsa-chi?" kabi savollarga o'ziga javob berish, tez aytishlar va maqollar yod olish, maqollarni yodlab, ularning ma'nosini tushuntirish, rolli o'yinlarda ishtirok etish ham samarali usullardan biridir. Axborot texnologiyalarining nutq rivojiga nojo'ya ta'siri

Axborot texnologiyalari o'quvchilar nutqini rivojlantirishda ko'p foyda bersa-da, ularni me'yoridan ortiq yoki noto'g'ri qo'llash og'zaki nutqning sekinlashishiga va buzilishiga olib kelishi mumkin. Quyidagi salbiy ta'sirlar ayniqsa dolzarb:

- yuzma-yuz muloqotning kamayishi;
- so'z boyligining qisqarishi;
- tovush va talaffuz xatolari
- audioni kam eshitish, noto'g'ri talaffuz qilinadigan kontentlar (masalan, chet el videolari) orqali noto'g'ri talaffuz shakllanadi;
- passiv muloqotga o'rganish;
- faqat tinglash (masalan, video ko'rish) bilan cheklanib, o'quvchi faol suhbatga kam jalb etiladi;

O'quvchilar ko'proq telefon, kompyuter orqali muloqot qilgani sababli real hayotdagi jonli suhbatlarda qiyinchilikka duch kelishadi. Muloqotdan cho'chish, o'z fikrini aytishdan tortinish kuzatiladi. Nutqiy faoliyat pasayadi, so'zlashuvga bo'lgan ishtiyoq kamayadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida og'zaki nutqni rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Multimedia vositalari, interaktiv darslar, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali o'quvchilar fikr bildirish, savol-javob qilish, muloqotga kirishish kabi nutqiy faoliyatlarda faollashmoqda.

Biroq, texnologiyalarni noto'g'ri yoki ortiqcha qo'llash salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishda muvozanat, metodik yondashuv va maqsadlilik muhim omil hisoblanadi.

Ta'limda axborot texnologiya vositalaridan foydalanishni samarali va to'g'ri maqsadli takomillashtirilib, ular orqali o'quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki og'zaki nutqi, muloqot madaniyati va fikrlash salohiyati ham rivojlantirilishi lozim.



Adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil.
- 2.Mahmudov N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
- 3.Yo'ldoshev T. Nutq madaniyati va uslublar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
4. Isroilova Z. Til o'rgatishda lingvodidaktik yondashuv. – Toshkent: TDPU, 2019
5. Qodirova M. Boshlang'ich ta'limda og'zaki nutqni rivojlantirish usullari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
6. Mavlonova G. Ta'limda interaktiv metodlar. – Toshkent: Fan, 2012.
7. Sattorova, M.A. (2024). The importance of developing national pride in primary school students through the science of upbringing. Education, science and innovation, No.
8. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi and Feruza Hayitova Abdullayevna, "THE ROLE OF PICTURES IN THE FORMATION OF STUDENTS 'CREATIVE ABILITY IN LITERACY LESSONS", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. 4, p. 3, Jul. 2021.
9. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi " Enhancing creativity in the process of developing studentso speech " The American Journal of Social Science and education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published Published: June 28, 2021 | https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03_Issye06-24 IMPACT FACTOR 2021: 11. 857 OCLC – 1121105668 Pages: 140-143 Америка
10. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AQLIY SALOHIYATINI HAMDA KREATIVLIGINI OSHIRISHDA MENTAL ARIFMETIKANING O'RNI M Ziyaqulova, S Ashurova, N Toshpulatova - Development and innovations in science, 2023
11. The importance of riddles in the development of students creativity in the learning process ZMS Qizi - Asian Journal Of Multidimensional Research, 2021
12. BOSHLANGICH SINIF OQUVCHLARINING LUGATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH MSQ Ziyaqulova, HIQ Raxmatova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2021
13. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi "Problems and solutions of scientific and innovative research" "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijobiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmi"- 2024- yil 182-1187-betlar Volume 01. ISSUE 07 universalconference.us

